

## 2019 yilning yanvar-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR:


<b>3969,6</b> mlrd.so'm sanoat ishlab chiqarish hajmi	<b>96,3%</b> sanoat ishlab chiqarish indeksi
<b>611,3</b> mlrd.so'm iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	<b>108,7%</b> o'sish sur'ati
<b>18,8%</b> sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi	<b>15,4%</b> istemol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalari tomonidan 3969,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 96,3% ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 87,9% tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 8,0% tashkil etti.

### 2019 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### ***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 124,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1% ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'ycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 3,6% ga oshganligini kuzatish mumkin va gaz kondensati 10,6% ga, tabiiy gaz 4,4% ga pa'sayishi kuzatildi.



### ***Yanvar-aprel oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2019 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
58414,0	<b>Ohoktosh, t</b> 	56374,0	103,6 ↑
55,8	<b>Gaz kondensati, ming t.</b> 	62,5	89,4 ↓
2064,6	<b>Tabiiy gaz, mln.kub.m</b> 	2159,0	95,6 ↓


### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***



2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3489,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 87,9% ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4% (2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,02%) ni o'rta-yuqori texnologiyali 68,3% (74,0), o'rta-quyi texnologiyali 5,0% (3,08%), va quyi texnologiyali 26,3 % (22,9%) tashkil etdi.







### ***2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bóyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi***








O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan , yumshoq bug'doy uni 5,0% ga, bug'doy noni 13,6% ga, tozalangan guruch 11,2 ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 18,2% ga va aroq 3,0% ga oshganligini va

paxta tolasi, , makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019 yilda ishlab chiqarilgan	ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlar	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	<b>Paxta tolasi, t</b>		
22435,0		27564,2	81,4 ↓
	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), t</b>		
5883,5		6192,6	95,0 ↓
	<b>Tozalangan guruch, t</b>		
1658,9		1492,1	111,2 ↑
	<b>Yumshoq bug'doy uni, t</b>		
26719,8		25852,7	105,0 ↑
	<b>Bug'doy noni, t</b>		
854,8		752,7	113,6 ↑
	<b>Makaron mahsuloti, t</b>		
579,1		1010,4	57,3 ↓



<b>Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t</b>			
17195,0		14547,0	118,2 ↑
<b>Aroq, ming.l. 100% spirt</b>			
1342,5		1304,0	103,0 ↑
<b>Karbonat dinatriya, ming.t.</b>			
63,0		64,7	97,4 ↓
<b>Polietilen, t.</b>			
120182,8		136149,1	88,3 ↓
<b>Polipropilen, t.</b>			
31648,2		34133,3	92,7 ↓

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 316,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (8,0% ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,3% ga, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 4,2% ga oshganligini kuzatildi.



### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish.**




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 15,8% ga pasayganligin, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 18,0% ga oshganligi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 7,2% ga pasayganligi kuzatildi.

### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 611,3 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,7% ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,4% ni tashkil etdi.

### **2019 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'mda)**



2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 61,2% dan 2019 yilning yanvar-aprel oylarida 61,4% ga oshishi kuzatilmoqda.

### ***Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %***




### ***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2224,8 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumi ishlab chiqarishdagi ulushi 56,0% tashkil etti.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmdagi ulishi, %**



**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi**


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 66,6% dan ulushini), Taxiato'sh (7,0%), Xo'jayli (3,9%), Amudaryo (3,1%), Mo'ynoq (2,8%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulushi Taxtako'pir (0,2 %), Shumanay (0,3 %), Nukus (0,4 %) va Chimboy (1,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Nukus shahar (jami iste'mol tovarlari hajmining 31,8%), Xo'jayli (12,3%), Beruniy (9,7%), To'rtko'l (7,6%), Ellikqal'a (6,5%), Qo'ng'iro't (6,0%), Amudaryo (5,7%) tumanlarida ishlab chiqarildi.




**2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish va xalq istemol mollari ishlab chiqarish (% da)**



**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshishini ta'minladi, va kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 18,8% tashkil etmoqda.

**2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqal'a (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qarao'zak (99,99%), Taxtako'pir(99,96) ,Nukus (99,9%) va Chimboy (92,4%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (6,9%),Mo'ynoq (10,1%), Taxiato'sh (13,2%) va Qonliko'l (17,4%) tumanlarida kuzatildi.

### **Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.**

Bugungi kunda respublikada 2068 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 349 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarining qariyb 50,0% Nukus shahri, Amudaryo, To'rtko'l, Beruniy va Mo'ynoq tumanlariga to'g'ri keladi.

#### **2019 yil 1 may holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik**



**Q.R Statistika boshqarmasi**  
**sanoat statistikasi bo'limi**  
**Aloqa telefoni: (0371) 230-82-09**